Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

YANGI O'ZBEKISTONDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIDA RAHBAR AYOLLARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY FAOLLIGI VA UNING AHAMIYATI

I M Arzimatova*
Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
✉ arzimatova1969@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida kechayotgan modernizasiya va innovasion taraqqiyot jarayonlarida rahbar ayollarning o'rni va ahamiyati, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, ta'lim va ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritayotgan ayol rahbarlarning jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy barqarorlik va demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi ishtiroki, shuningdek, rahbar ayollarning milliy qadriyatlarni asrash, yosh avlod tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash hamda davlat xizmati samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar

Yangi O'zbekiston, modernizasiya, innovasiya, rahbar ayol, davlat xizmati, boshqaruv madaniyati, ma'naviy qadriyatlar, etakchilik, ayollar faolligi, demokratik islohotlar, ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyot, davlat boshqaruvi.

DOI: 10.5281/zenodo.23051455

KIRISH

"Rahbar", "rahbar ayol" tushunchalari bevosita rahbarlikka, davlat xizmati sohasida faoliyat olib boruvchi ayollarga tegishli bo'lib, bunda ayol rahbarlarning insoniylikkina emas, rahbarlik salohiyati nazarda tutiladi. Rahbar ayolgina emas, umuman rahbarlarning faoliyatiga, davlat xizmati tizimida amalga oshiradigan faoliyatiga e'tibor qaratsak, ularning ishi, faoliyati boshqa soha vakillarining faoliyatidan farq qilgan holda, o'zigagina emas, jamiyatning, boshqalarning hayotiga ham yo'nalganligi bilan farqlanadi. Jamiyat va uning a'zolari ongida rahbar ayollar asosan liderlar, yo'lboshchilar sifatida anglashiladi.

Hozirgi kunda ayol rahbarlar faqat davlat boshqaruvi tizimidagina emas, balki jamiyatning barcha sohalarida - iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ta'lim, san'at va boshqa sohalarida ham faoliyat olib bormoqdalar. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda hozirgi kunda ayollar tadbirkorlik sohasida ham rahbar lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. "O'zbekistonda tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi tadbirkorlarning taxminan 40 foizini ayollar tashkil etadi.

Rahbarlik lavozimlaridagi ayollar soni ham ortib bormoqda. So'nggi 7 yil ichida bu ko'rsatkich 27 foizdan 35 foizga etdi. Bu ko'rsatkichlar ayollarning tadbirkorlik va rahbarlik sohalaridagi faolligini namoyon etadi [1].

Davlat xizmatchisi sifatida faoliyat olib borayotgan ayol rahbarlarga e'tibor qaratsak, tadqiqotchi G.Sa'dievaning fikriga ko'ra ularning faoliyati – xalqqa xizmat qilishdan iborat. "Yuqorida keltirilgan xorijiy davlatlar tajribasidagi umumiy xususiyatga e'tibor beradigan bo'lsak, bu – davlat xizmatchilarining xalqqa xizmat qilishidir. Davlat xizmatchisi – nafaqat malakali boshqaruvchi, shuning barobarida, uning vakolati doirasiga davlat vazifalarini amalga oshirish va davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini malakali tarzda

ijrosini ta’minlovchi mansabdor shaxs hamdir. Davlat xizmatchisi – bu oddiy xodim emas, u davlat topshirig‘i va manfaatlari bo‘yicha uning nomidan harakat qiluvchi shaxsdir. U fuqarolar manfaatlari yo‘lida davlat organlari tizimida boshqaruv hokimiyati vakolatlarini bajaradigan, xalq irodasini ifoda etib, ijtimoiy masalalarni hal etadigan maxsus ijtimoiy fuqarolar birligining vakili hisoblanadi” [2, B. 13].

Tahlil etilayotgan mavzu doirasida tadqiqotlar olib borayotgan O‘zbekiston olimlari “davlat xizmatchisi”, “rahbar”, “ayol rahbar” tushunchalariga turlicha yondashadilar. Umumiy tarzda rahbar ayol – ma’lum malaka va salohiyatga ega bo‘lgan, boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatadigan va o‘z fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan etakchi yoki lider shaxs. Rahbar ayol qaysi sohada yoki qaysi tashkilotda faoliyat ko‘rsatmasin, uning faoliyati va faoliyatida u amal qiladigan qoidalar, ma’naviy-axloqiy madaniyati, ma’naviy dunyoqarashi va boshqalar tegishli tashkilot yoki tizimning ham faoliyati, taraqqiyoti, samaradorligi hamda kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rahbar ayol to‘g‘risida fikr yuritilganda, uning faoliyatini shunchaki xodimning faoliyati sifatida emas, uni ma’lum ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va boshqa qadriyatlarni tashuvchi, uning asosida milliy ma’naviyatni yanada rivojlantiruvchi va shuning bilan birga, ularni o‘z faoliyatida ko‘pchilikka tarqatuvchi etakchi shaxs sifatida anglanilishi lozim. Demak, unga nisbatan jamiyat va boshqalarning talablari oddiy xodimga qo‘yilgan talablardan ko‘p barobar yuqoridir.

Rahbar ayol nafaqat xodimlarga, balki boshqalarga, yosh avlodga milliy ma’naviy qadriyatlarni uzatuvchi va ularning ongiga singdiruvchi funksiyasini bajaradi. Mazkur funksiya asosida ularni ma’naviy taraqqiyot, milliy axloq qoidalariga amal qilish, ma’naviy ongini yuksaltirish tomonga yuksaltiradi. Buning asosida esa jamiyatda milliy ma’naviy-axloqiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat olib boradi. Ma’naviy barqarorlik esa o‘z navbatida iqtisodiy – ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlikni ham ta’minlashga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, rahbar ayolning jamiyatda ma’naviyatni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u boshqalarning ham ma’naviy taraqqiyotiga, axloqiy yuksalishiga xizmat qiladi: “... ma’naviyatni inson shakllantiradi va uning iste’molchisi ham insonning o‘zi hisoblanadi. Bu – inson ma’naviy jihatdan yuksalgan bo‘lsa, u shakllantiradigan g‘oyalar ham inson manfaatlari va maqsadlarini o‘zida ifoda ettirishi hamda ularning ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi” [3, B. 213].

Ayol rahbarlar avvalo, o‘zlari ona bo‘lganliklari uchun va shaxs sifatida mohiyatiga ko‘ra inson tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarga va ularning to‘g‘ri xal etilishiga boshqalarga nisbatan ko‘proq aloqadorlar va bundan ma’naviy manfaatdorlar. Bunga bog‘liq ravishda ular ayniqsa, yoshlarning axloqi, ma’naviyatini shakllantirish, ularda to‘g‘ri milliy ma’naviy ehtiyojlarni, kishilar ongida ma’naviy burch g‘oyalarini to‘g‘ri shakllantirish va yo‘naltirish jarayonida muhim rol o‘ynashlari mumkin. Burchni to‘g‘ri anglash jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. “Insonning ma’naviy burchi uning ma’naviyati, ruhiyati, tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, tarbiyasida muhim rol o‘ynagan, narsa, hodisa va shaxslarga nisbatan ma’naviy qarzdorlik tuyg‘usidir. Burch kishining jamiyat, davlat va boshqa odamlarga nisbatan munosabati, ular oldidagi majburiyatini ifodalaydi. ... Umuman, ma’naviy burch inson faoliyati va faoliyatining barcha sohalarida har bir xatti-harakatida namoyon bo‘ladi” [4, B. 748].

Barcha rahbarlik lavozimida ishlaydigan shaxslarning jamiyat hayoti va ijtimoiy taraqqiyotidagi roli muhim. Ularning kasbiy xislatlari, o‘z faoliyati va oldida turgan vazifalarini yaxshi anglashi, ayniqsa, uning jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Rahbar shaxs jamiyat va uning a’zolarini ma’lum ma’naviy-axloqiy taraqqiyot tomonga yo‘naltirishlari, o‘zlari amal qiladigan axloqiy qoidalarni jamiyatda muhim o‘rin egallashi zamirida jamiyatning barqarorligini ta’minlashlari mumkin. Bunday ob’ektiv jarayonlar har bir rahbar oldiga erkakmi, yoki ayolmi, bir xil vazifalarni qo‘yadi. “Bu ta’sirlar davlatlarning boshqaruv tizimida ham o‘z aksini topib boradi. Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy resurs talab etadigan tizim bo‘lib, uning samaradorligi, asosan, malakali kadrlarga bog‘liq bo‘ladi. Davlat tizimiga ishga kirayotgan kadr o‘zini davlatning xos xodimiga aylanayotganini, jamiyatda muhim mavqega ega bo‘layotganini his qilmas ekan, davlat berayotgan mavqedan turli maqsadlarda foydalanib, ham o‘zining, qolaversa, davlatning ham maqomiga putur etkazishi mumkin” [5, B. 16].

Bu nuqtai nazardan jamiyatni boshqaruv jarayonlariga ayollarni ko‘proq jalb etish, ularni davlat xiz-

mati tizimida turli lavozimlarga tayinlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda rahbarlik lavozimlariga ayol rahbarlarning zaxirasini tarbiyalab, tayyorlab borish talab etiladi. Buning uchun yosh, intellektual va etakchilik salohiyati yuqori, rahbarlik lavozimlari uchun layoqatli hamda kelajakda rahbarlikning zamonaviy talablariga ham javob bera oladigan qizlarni, ayollarni tanlab, ularni bu sohada to‘g‘ri yo‘naltirib borish zarur. Bu borada “Tadbirkor ayollar”, “Olima ayollar” uyushmalari ham muhim rol o‘ynashlari mumkin.

Davlat xizmatchisi ma’naviy boylik tashuvchi sifatida davlat bergan huquq va vakolatlardan foydalanib, odamlarni odob-axloq qoidalariga rioya qilishga yo‘naltiradi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Margaret Tetcher - Buyuk Britaniyaning ilk ayol bosh vaziri sifatida - ayol rahbar sifatidagi o‘ziga xos tajribasini o‘rtoqlashgan. U ayol rahbarlik haqida quyidagi fikrni bildirgan: ” Uyni boshqarish muammolarini tushunadigan har qanday ayol, mamlakatni boshqarish muammolarini tushunishga yaqinroq bo‘ladi” [6]. Bu so‘zlar Margaret Tetcherning ayollarning rahbarlik qobiliyatiga ishonchi va ularning tajribasini qadrlashini ko‘rsatadi.

Davlat xizmatining barqarorligi, ishonchliligi va shaffofligini ta’minlash davlat xizmatchisining ongi, kasbiy tayyorgarligi, salohiyati, ma’naviy-axloqiy xususiyatlariga bog‘liq. Ular ko‘p hollarda o‘zining qiyofasi orqali davlat imidjini ham ifoda etadi. Jamiyat a’zolarining davlat tashkilotlariga munosabati ko‘p jihatdan mazkur tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatayotgan davlat xizmatchilarining o‘zlarini qanday tutishlariga, halolligi, salohiyati va boshqa fazilatlariga bog‘liq.

So‘nggi vaqtlarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovasiyalar, korrupsiyaga qarshi kurash, turli darajadagi davlat tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga intellektual salohiyatli, mas’uliyatli, o‘z ishining ustasi, javobgarlik hissi yuqori bo‘lgan yoshlarning tayinlanishi kabilar davlat boshqaruvi tizimida demokratik jarayonlarga keng yo‘l ochmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish talablari, innovasiyalarga bo‘lgan ehtiyojlar biz tahlil etilayotgan sohada ulkan qayta qurishni, yanada aniqroq aytsak, ijobiy transformasiyani amalga oshirishni talab etmoqda. Bunday vazifalarni bajarishda Prezident va hukumat tomonidan qabul qilingan Farmonlar va qarorlarni aytib o‘tish zarur. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining “Davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy prinsiplari” qismi fikrimizning dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizasiya va innovasion yangilanish jarayonlarida rahbar ayollarning ishtiroki tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayol rahbarlar nafaqat boshqaruv samaradorligini ta’minlash, balki milliy ma’naviy qadriyatlarni saqlash, yosh avlod tarbiyasiga hissa qo‘shish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi. Davlat boshqaruvi tizimida ayollarning faolligini oshirish, ularning kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bois rahbar ayollar zaxirasini shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va boshqaruv jarayonlariga keng jalb etish Yangi O‘zbekistonning strategik taraqqiyot vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://sputniknews.uz/20240919/ayollar-narbaeva-forum-45732218.html?utm_source=chatgpt.com
2. Sa’dieva G.O. Davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining shakllanishiga siyosiy madaniyat va mafkuraning ta’siri. 23.00.03-Siyosiy madaniyat va mafkura. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. T., 2022.
3. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari). T.: “Ozbekiston”, 2018.
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. I.A-N. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. “Ma’naviyat” nashriyoti. T.: 2019.
5. Sa’dieva G.O. Davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining shakllanishiga siyosiy madaniyat va mafkuraning ta’siri. 23.00.03-Siyosiy madaniyat va mafkura. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. T.: 2022.
6. https://www.aei.org/articles/margaret-thatcher-showed-the-world

-what-a-woman-can-do/